

EDITORIAL LEADERSHIP

Editor-in-Chief:

Rustam SHAMSHIDDINOV – DSc (Law), Professor

Deputy Editor:

Alokhon ALIKARIEVA – PhD (Sociology), Associate Professor, *National University of Uzbekistan*

Editorial Board:

Azamat AKHMEDOV – DSc (Technology), Associate Professor, *Tashkent State Technical University*

Behzod ABBASOV – PhD (History), Associate Professor, *Namangan State University*

Bekhzod ERNAZAROV – PhD (Sociology), Associate Professor, *Urgench State University*

Botirali VAKHOBOV – PhD (History), Associate Professor, *Namangan State University*

Botirjon MALLABAYEV – PhD (History), Associate Professor, *Namangan State University*

Damira MIRZAKHALILOVA – PhD (Economics), Associate Professor, *Tashkent Branch of the Gubkin Russian State University of Oil and Gas*

Dilnoza KHAMDAMOVA – PhD (Technology), *Tashkent Institute of Chemical Technology*

Donokhon ACHILOVA – DSc (Medicine), Associate Professor, *Bukhara State Medical Institute*

Farkhod CHORSHANBIYEV – DSc (Agriculture), Associate Professor, *Tashkent State Agrarian University*

Farkhod IBRAGIMOV – DSc (Technology), Associate Professor, *Tashkent State University of Transport*

Jakhongir BOTIROV – PhD (Medicine), *Andijan State Medical Institute*

Javlon JURAYEV – PhD (Agriculture), Associate Professor, *Tashkent State Agrarian University*

Kamaldin YUNUSOV – DSc (Politics), Professor, *Andijan State University*

Laziz KHAYITOV – PhD (Medicine), *Samarkand State Medical Institute*

Marifjon AKHAMEDOV – PhD (Pedagogy), Associate Professor, *State Conservatory of Uzbekistan*

Mokhigul OTAMIRZAEVA – PhD (Geography), *University of Business and Science*

Mokhirakhon MUYDINOVA – PhD (Sociology), *Namangan State University*

Muyassar NAVRUZOVA – PhD (Philology), Associate Professor, *Bukhara State University*

Nigora ASHUROVA – PhD (Medicine), Associate Professor, *Bukhara State Medical Institute*

Nodirakhon NISHONOVA – PhD (Medicine), *Andijan State Medical Institute*

Olga KOMAROVA – Associate Professor, *Uzbekistan State Institute of Arts and Culture*


Sarvara BOBOKULOVA – PhD (Medicine), *Bukhara State Medical Institute*

Shakhnoza SADIKOVA – Associate Professor, *Tashkent State Technical University*

Sirojiddin SHIRMATOV – PhD (Pedagogy), Associate Professor, *Customs Institute of the State Customs Committee*

Umid MUKHITDINOV – PhD (Technology), Associate Professor, *Tashkent Institute of Chemical Technology*

Vasila UMAROVA – PhD in (Technology), Associate Professor, *Tashkent Institute of Chemical Technology*



CYBERCRIME: THE THREAT IN THE INFORMATION AGE AND THE FIGHT AGAINST IT

Bunyod Kudratov ¹.

¹ Independent Researcher, Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan.

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.18499114>

Key words: *cybercrime, digital forensics, cybersecurity, forensic examination, crypto-assets, law enforcement.*

ABSTRACT

This article provides a comprehensive analysis of the processes through which crime is shifting from traditional forms to the digital environment in the context of the rapid development of information technologies and the expansion of the digital space. It examines the global and national threats posed by cybercrime, as well as their socio-economic and legal consequences. Within the framework of the study, the transboundary nature of cybercrime, its high level of anonymity, and its technological complexity are substantiated from a scholarly perspective, particularly in terms of their impact on law enforcement activities. The findings of the study demonstrate that improving the effectiveness of combating cybercrime requires the enhancement of the regulatory and legal framework, the development of digital investigation and forensic expertise institutions, and the implementation of a scientifically grounded and integrated approach. The conclusions of this article are of significant theoretical and practical relevance for improving state policy in the field of combating cybercrime and for advancing law enforcement practice.

KIBERJINOYATCHILIK: AXBOROT ASRIDAGI TAHDID VA UNGA QARSHI KURASH

Kalit soʻzlar:

kiberjinoiyatchilik, raqamli kriminalistika, kiberxavfsizlik, sud ekspertizasi, kripto-aktivlar, huquqni muhofaza qilish.

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va raqamli muhitning kengayishi sharoitida jinoyatchilikning anʼanaviy shakllardan raqamli makonga koʻchish jarayonlari, kiberjinoiyatchilikning global va milliy miqyosdagi tahdidlari hamda ularning ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy oqibatlari kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida kiberjinoiyatlarning transchegaraviy xususiyati, anonimlik darajasi va texnologik murakkabligi huquqni muhofaza qilish faoliyatiga qanday taʼsir koʻrsatayotgani ilmiy nuqtayi nazardan asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari kiberjinoiyatchilikka qarshi kurashish samaradorligini oshirishda normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, raqamli tergov va sud ekspertizasi institutlarini rivojlantirish, shuningdek, ilmiy asoslangan va kompleks yondashuvni joriy etish zarurligini koʻrsatadi. Mazkur maqola xulosalari kiberjinoiyatchilikka qarshi kurashish sohasida davlat siyosatini takomillashtirish hamda huquqni qoʻllash amaliyotini rivojlantirish uchun ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Dunyoda jinoyatchilikning tabiati va koʻrinishlari tubdan oʻzgarib bormoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal surʼatlar bilan rivojlanishi, internet tarmogʻining globallashuvi va kibermakonning kengayib borishi jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida yangi qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Cybersecurity Ventures tashkiloti tadqiqotlariga koʻra, kiberhujumlar oqibatida yetkazilayotgan iqtisodiy zarar hajmi izchil ortib bormoqda [1]. Xususan, 2015-yilda 3 trillion AQSH dollarini tashkil etgan zarar 2025-yilga kelib 10,5 trillion dollarga yetgan boʻlib, 2031-yilgacha 12,2 trillion dollarga yetishi prognoz qilinmoqda.

Bugungi kunda global internet makonida insonlarning ijtimoiylashuvi eng yuqori bosqichga chiqqan: dunyo aholisining qariyb 60 foizi kuniga oʻrtacha 6 soat internetdan foydalanmoqda, axborot almashinuvi hajmi esa soʻnggi besh yilda ikki barobar oshgan [2].

Anʼanaviy jinoyatlarning kibermakonga koʻchishi, uyushgan va transmilliy jinoiy guruhlar tomonidan blokcheyn, kriptografiya, deepfake kabi texnologiyalardan foydalanilishi huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini murakkablashtirmoqda.

Sh. Harris kibermakonni harbiy harakatlarning beshinchi maydoni sifatida ta'riflaydi [3], BMT Bosh kotibi A. Guterrish esa kiberrushlarni tartibga soluvchi universal xalqaro normalar mavjud emasligini ta'kidlaydi [4]. Mazkur global jarayonlar O'zbekiston Respublikasida ham o'z aksini topib, kibernetik jinoiyatlarning jinoyatchilik tarkibidagi ulushi keskin oshmoqda. Ushbu holat shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilish, javobgarlikning muqarrarligini ta'minlashni dolzarb ilmiy-amaliy vazifaga aylantirmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqot kibernetik jinoiyatchilikka qarshi kurashish sohasida shakllanayotgan zamonaviy huquqiy, institutsional va ilmiy-amaliy yondashuvlarni kompleks tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, unda umumilmiy va maxsus yuridik tadqiqot metodlaridan tizimli ravishda foydalanildi. Tanlangan metodologiya tadqiqot predmetining murakkabligi, ko'p tarmoqliligi va transchegaraviy xususiyatlarini inobatga olgan holda shakllantirildi.

Xususan, **tahliliy metod** yordamida kibernetik jinoiyatchilikning global va milliy miqyosdagi rivojlanish tendensiyalari, raqamli texnologiyalar evolyutsiyasi bilan jinoiyatlarning shakl va usullari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, shuningdek, kibernetik jinoiyatlarning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini tizimli ravishda o'rganildi. Ushbu metod jinoiyatchilikning raqamli muhitda namoyon bo'lish xususiyatlarini aniqlash hamda mavjud muammolarni konseptual darajada umumlashtirish imkonini berdi.

Qiyosiy-huquqiy metod xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar tajribasini tahlil qilish, kibernetik jinoiyatlarga qarshi kurashish bo'yicha ilg'or huquqiy mexanizmlarni aniqlash hamda ularni O'zbekiston Respublikasining amaldagi normativ-huquqiy bazasi bilan solishtirish maqsadida qo'llanildi. Ushbu metod orqali milliy qonunchilikni takomillashtirish uchun moslashtirilishi mumkin bo'lgan huquqiy institutlar, protsessual mexanizmlar va javobgarlik choralarining afzalliklari hamda cheklolari aniqlab berildi.

Statistik metod O'zbekiston Respublikasida axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etilayotgan jinoiyatlar dinamikasini, ularning umumiy jinoiyatchilik tarkibidagi ulushini hamda vaqt bo'yicha o'zgarish tendensiyalarini baholashda qo'llanildi. Rasmiy statistik ma'lumotlar asosida kibernetik jinoiyatchilikning o'sish sur'atlari, ustuvor turlari va hududiy xususiyatlari tahlil qilinib, ularning huquqni muhofaza qilish amaliyotiga ta'siri baholandi.

Institutsional tahlil huquqni muhofaza qiluvchi organlar, sud-ekspertiza muassasalari va ilmiy-tadqiqot institutlarining kibernetik jinoiyatlarga qarshi kurashishdagi vakolatlari, funksional vazifalari va o'zaro hamkorlik mexanizmlarini o'rganishga yo'naltirildi. Mazkur metod orqali institutsional tuzilmalarning samaradorligi, vakolatlar taqsimotidagi muammolar hamda ularni bartaraf etish imkoniyatlari aniqlandi.

Axborot manbalari sifatida xalqaro va milliy miqyosdagi ilmiy tadqiqotlar, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari, Prezident qarorlari va farmonlari, hukumat hujjatlari, shuningdek, vakolatli davlat organlarining rasmiy statistik ma'lumotlari va ochiq manbalardagi tahliliy hisobotlardan foydalanildi [5]. Mazkur manbalar majmui tadqiqot xulosalarining ilmiy asoslanganligi va ishonchligini ta'minlashga xizmat qildi.

Natijalar

Statistik ma'lumotlar tahlili respublikada axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda sodir etilayotgan firibgarlik jinoiyatlari sonining so'nggi yillarda keskin sur'atlarda oshganini ko'rsatadi. Xususan, 2022-yilda bunday turdagi jinoiyatlar soni 1 813 tani tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda ushbu ko'rsatkich 2 055 taga yetgan. 2024-yilda esa kibernetik firibgarlik jinoiyatlari soni keskin sakrab, 21 036 ta holatni tashkil etgan. 2025-yilda mazkur ko'rsatkich yanada oshib, 38 614 ta jinoiyat qayd etilgan. Natijada, 2025-yil yakunlariga ko'ra kibernetik jinoiyatlar respublikada sodir etilgan jami jinoiyatlarning 49,6 foizini tashkil etib, jinoiyatchilik tuzilmasida ustuvor tahdidga aylanganini ko'rsatmoqda. Mazkur tendensiya kibernetik jinoiyatchilikning nafaqat son jihatidan, balki ijtimoiy xavflilik darajasi, yetkazilayotgan moddiy va nomoddiy zarar ko'lami hamda jinoiyat sodir etish usullarining murakkablashuvi nuqtayi nazaridan ham jadal rivojlanayotganini tasdiqlaydi.

Xususan, raqamli muhitda sodir etilayotgan jinoiyatlarni aniqlash, tergov qilish va dalillarni mustahkamlash maqsadida Raqamli kriminalistika ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etildi [6].

Mazkur institut raqamli dalillarni yig'ish, tahlil qilish va ekspertiza qilish bo'yicha ilmiy-uslubiy bazani shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bundan tashqari, moliya sohasida kiberxavfsizlikni kuchaytirish maqsadida bank va to'lov tizimlari uchun antifrod mexanizmlari joriy etilib, shubhali tranzaksiyalarni real vaqt rejimida aniqlash va oldini olish imkoniyatlari kengaytirildi. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar o'rtasida tezkor axborot almashinuvi mexanizmlarining yo'lga qo'yilishi esa kiberjinoyatlarga tezkor javob qaytarish va ularni fosh etish samaradorligini oshirdi.

Shu bilan birga, kiberjinoyatlar uchun javobgarlikni kuchaytirishga qaratilgan normativ-huquqiy tashabbuslar ilgari surilib, jinoyat qonunchiligini raqamli tahdidlarning zamonaviy shakllariga moslashtirish choralari ko'rildi [7]. Bu esa kiberjinoyatchilikka nisbatan muqarrar javobgarlik prinsipini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Qo'shimcha ravishda, Kiberjinoyatlarga qarshi kurashishga va raqamli tergovga ko'maklashish markazining tashkil etilishi tergov va sud amaliyotini ilmiy-texnik jihatdan qo'llab-quvvatlash, zamonaviy raqamli ekspertiza vositalaridan foydalanish hamda mutaxassislarning malakasini oshirish imkonini berdi [8]. Mazkur markaz faoliyati kiberjinoyatlar bo'yicha dalillarning ishonchliligini ta'minlash va sud qarorlarining asoslanganligini kuchaytirishda muhim institutsional omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Muhokama

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, kiberjinoyatchilikka qarshi samarali kurashish faqat reaktiv choralar bilan cheklanmasligi lozim. Ushbu sohada kompleks, oldini olishga yo'naltirilgan, ilmiy asoslangan va institutsional jihatdan barqaror yondashuv zarur. Raqamli kriminalistika institutlari faoliyatini kuchaytirish, raqamli dalillar bilan ishlashning yagona metodologiyasini shakllantirish va moliya sektorining axborot xavfsizligi bo'yicha mas'uliyatini oshirish kiberjinoyatlarni fosh etish samaradorligini sezilarli oshiradi. Shuningdek, xalqaro hamkorlikni kengaytirish, xususan Budapesht konvensiyasiga qo'shilish masalasini o'rganish, kiberjinoyatlarning transchegaraviy xususiyatini inobatga olgan holda muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, O'zbekistonda qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlar kiberjinoyatchilikka qarshi kurashni ilmiy, institutsional va amaliy jihatdan mustahkamlashga xizmat qilmoqda hamda mazkur yo'nalishda barqaror natijalarga erishish uchun mustahkam poydevor yaratmoqda.

Xulosa va takliflar

Xulosa qilib aytganda, axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etilayotgan jinoyatlarga qarshi kurashish zamonaviy jamiyat sharoitida nafaqat huquqni muhofaza qilish tizimining, balki butun davlat boshqaruvi va milliy xavfsizlik siyosatining muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'lmoqda. Raqamli muhitda jinoyatchilikning tezkor rivojlanishi, uning murakkablashib borayotgan shakllari hamda transchegaraviy xususiyati kiberjinoyatchilikka qarshi kurashishda an'anaviy yondashuvlar bilan cheklanib qolish imkonini bermaydi. Shu bois mazkur yo'nalishda ilmiy asoslangan, institutsional jihatdan barqaror va texnologik jihatdan moslashuvchan mexanizmlarni shakllantirish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kiberjinoyatlarga qarshi samarali kurashish huquqni muhofaza qiluvchi organlar, ilmiy-tadqiqot muassasalari, moliya institutlari hamda fuqarolik jamiyati institutlarining o'zaro muvofiqlashgan va tizimli hamkorligisiz mumkin emas. Ayniqsa, raqamli kriminalistika institutlarining rivojlanishi, raqamli dalillar bilan ishlashning ilmiy-metodik asoslarini yaratish va sud-ekspertiza amaliyotini modernizatsiya qilish jinoyatlarni fosh etish va aybni isbotlash sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqot doirasida olingan ilmiy xulosalardan kelib chiqib, kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish samaradorligini yanada oshirish maqsadida quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi:

1. *Blokcheyn sud ekspertizasini* alohida va mustaqil sud ekspertiza turi sifatida joriy etish, ushbu yo'nalish bo'yicha metodik asoslarni ishlab chiqish hamda uni belgilangan tartibda davlat reyestridan o'tkazish;

2. *Jinoyat-protsessual qonunchilikni* takomillashtirish orqali raqamli dalillarni aniqlash, mustahkamlash, tekshirish va baholash bilan bog‘liq protsessual normalarni kengaytirish, shu jumladan, xorijiy xizmat provayderlariga so‘rov yuborish mexanizmlarini huquqiy jihatdan aniq belgilash;
3. *Kripto-aktivlar aylanmasi sohasida* antifrod, xatlash va musodara qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirish, mazkur jarayonlarda raqamli kriminalistika imkoniyatlaridan keng foydalanish;
4. *Tergov va tezkor-qidiruv xodimlarining raqamli kompetensiyalarini* tizimli va uzluksiz oshirish, shu jumladan, maxsus o‘quv dasturlari, qisqa muddatli malaka oshirish kurslari va amaliy treninglarni joriy etish;
5. *Kiberjinoyatlar bo‘yicha yagona sud amaliyotini* shakllantirish maqsadida sud va huquqni muhofaza qilish organlari uchun umumiy metodik yondashuvlar va izohlarni ishlab chiqish.

Mazkur takliflarning izchil va kompleks tarzda amalga oshirilishi kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini ilmiy, huquqiy va institutsional jihatdan mustahkamlashga, jinoyatlarning oldini olish, ularni tezkor fosh etish hamda ayb uchun javobgarlik muqarrarligi tamoyilini to‘liq ta’minlashga xizmat qiladi.

IQTIBOSLAR

1. Cybersecurity Ventures. (2025). *Cybercrime will cost the world \$1 trillion USD per month by 2031*. Retrieved from <https://cybersecurityventures.com/cybercrime-will-cost-the-world-1-trillion-usd-per-month-by-2031>
2. Statista. (n.d.). *Global business data platform: Internet and cybercrime statistics*. Retrieved from <https://www.statista.com/statistics/631151/>
3. Harris, S. (2016). *Cyberwar: The fifth domain of warfare* (Russian ed.). Moscow: Alpina Non-Fiction.
4. Digital Future News Center. (n.d.). *Cyberwars in the grey zone*. Retrieved from <https://dfnc.ru/security/kibervojny-v-seroj-zone>
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2022). *Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi (2022–2026)*. Retrieved from <https://lex.uz/docs/5841063>
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2023). “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi Farmon. Retrieved from <https://lex.uz/ru/docs/6600413>
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2023, November 30). *Raqamli mahsulotlar (xizmatlar) iste‘molchilari huquqlarini himoya qilish va raqamli texnologiyalar vositasida sodir etiladigan huquqbuzarliklarga qarshi kurashishni kuchaytirish choralari to‘g‘risidagi PQ–381-son Qarori*.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2024, June 21). *Raqamli kriminalistika sohasida ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PQ–229-son Qarori*.

ILMIY TAQRIZ

Taqdim etilgan maqola zamonaviy jinoyatchilik transformatsiyasi sharoitida kiberjinoyatchilik muammolarini, ularning ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va institutsional oqibatlarini hamda O‘zbekiston Respublikasida ushbu tahdidlarga qarshi kurashish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlarni kompleks tahlil qilishga bag‘ishlangan. Mazkur tadqiqot mavzusi bugungi kunda nafaqat milliy, balki global miqyosda ham dolzarbligi bilan ajralib turadi va ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Maqolaning dolzarbligi, avvalo, jinoyatchilikning raqamli muhitga jadal ko‘chishi, kiberjinoyatlarning transchegaraviy va yuqori darajada latent xususiyat kasb etishi, shuningdek, ularning iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikka bevosita tahdid solishi bilan asoslangan. Muallif kiberjinoyatchilikni faqat jinoyat-huquqiy muammo sifatida emas, balki milliy xavfsizlik, iqtisodiy barqarorlik va jamoat ishonchiga ta‘sir etuvchi kompleks fenomen sifatida yoritadi. Ushbu yondashuv tadqiqotning konseptual darajasini oshirib, uni tor sohaviy tahlildan keng strategik muhokama darajasiga olib chiqadi.

Maqolaning nazariy bazasi yetarlicha mustahkam. Xalqaro tahliliy manbalar (*xususan, Cybersecurity Ventures, xorijiy jurnalistik va ekspert baholari*), shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining strategik hujjatlari va normativ-huquqiy qarorlari asosida muammo ko‘p qatlamli yondashuvda ochib berilgan. Muallif global va milliy tendensiyalarni qiyosiy kontekstda tahlil qilib, ularning o‘zaro bog‘liqligini mantiqan asoslab bera olgan. Ayniqsa, kiberjinoyatchilikning iqtisodiy zarar ko‘lamiga doir aniq statistik raqamlar keltirilishi tadqiqotning ishonchliligini oshiradi. Metodologik jihatdan maqola normativ-huquqiy tahlil, statistik kuzatuv va institutsional yondashuv uyg‘unligiga asoslangan. Ushbu metodlar tanlovi tadqiqot predmetining murakkabligi va ko‘p tarmoqliligiga mos keladi. Statistik ma‘lumotlarning dinamik tahlili orqali O‘zbekistonda kiberjinoyatlarning umumiy jinoyatchilik tarkibidagi ulushi keskin oshib borayotgani asosli ravishda ko‘rsatib berilgan. Bu esa muallif xulosalarining empirik poydevorini mustahkamlaydi. Maqolaning muhim ilmiy natijalaridan biri – raqamli kriminalistika institutlarining kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish tizimidagi strategik rolini asoslab berishidir. Raqamli kriminalistika ilmiy-tadqiqot institutining tashkil etilishi, uning vazifalari va amaliy ahamiyati batafsil yoritilib, ushbu institut faoliyati tergov va sud amaliyotini ilmiy-texnik jihatdan ta‘minlashda muhim bo‘g‘in ekani ishonchli dalillar bilan ko‘rsatilgan. Bu jihat maqolaning amaliy ahamiyatini sezilarli darajada oshiradi. Shuningdek, maqolada 2025 yilda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar asosida kiberjinoyatlarga qarshi kurashishning yangi institutsional mexanizmlari – antifrod tizimlari, idoralararo axborot almashinuvi, moliya sektorining mas‘uliyatini oshirish, “drop” shaxslar uchun javobgarlik belgilash kabi chora-tadbirlar tahlil qilingan. Ushbu tahlil nafaqat tavsifiy, balki baholovchi xarakterga ega bo‘lib, huquqni qo‘llash amaliyoti uchun foydali xulosalar chiqarishga imkon beradi. Shu bilan birga, ayrim jihatlarida maqolani yanada kuchaytirish mumkin. Xususan, raqamli kriminalistika va kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish bo‘yicha xorijiy davlatlarning aniq institutsional modellari bilan qiyosiy tahlil kengroq berilsa, tadqiqotning xalqaro ilmiy qiymati yanada ortgan bo‘lur edi. Bundan tashqari, xulosa qismida normativ va institutsional takliflar aniqroq strukturaviy shaklda ajratib ko‘rsatilishi maqolaning policy-oriented yo‘nalishini kuchaytirgan bo‘lardi. Umuman olganda, taqdim etilgan maqola ilmiy jihatdan pishiq, mantiqan izchil va dolzarb mavzuga bag‘ishlangan bo‘lib, kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida olib borilayotgan ilmiy va amaliy izlanishlarga munosib hissa qo‘shadi.

Disclaimer ©

This editorial review has been prepared by the Editorial Board of the *Journal of Research & Development* for the purposes of internal editorial assessment and quality assurance within the journal’s publication process. This review is intended to provide an analytical overview of the scientific content, methodological approach, and thematic relevance of the submitted work. It does not constitute peer review, does not replace independent expert evaluation, and should not be interpreted as reflecting the personal views of the author(s) or as representing the official position of the journal. The Editorial Board assumes no responsibility for the implementation, interpretation, or consequences of any observations, comments, or analytical conclusions contained in this review. The review may include content generated with the assistance of artificial intelligence tools used for editorial support purposes.

This editorial review is provided solely to enhance transparency in the editorial process and to support the maintenance of academic and publication standards.